

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES

huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2024-yil maxsus son

VOLUME 8 / SPECIAL ISSUE / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.ROLLS.2024.8.SN.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLLS



TAHRIR HAY'ATI

I. RUSTAMBEKOV

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir

B. XODJAYEV

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir o'rinnbosari

O. CHORIYEV

Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i – mas'ul muharrir

A. SAIDOV

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining direktori, yuridik fanlar doktori, professor

EDWARD JUCHNIEWICZ

Polshaning Gdansk universiteti Huquq va boshqaruva fakulteti Moliyaviy huquq kafedrasi professori, huquq doktori

AMMAR YOUNAS

TDYU Biznes huquqi kafedrasi o'qituvchisi

O. OKYULOV

TDYU Fuqarolik huquqi kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori

J. NEMATOV

TDYU Ma'muriy va moliya huquqi kafedrasi professori v.b., yuridik fanlar doktori

SH. ASADOV

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari kafedrasi professori v.b., yuridik fanlar doktori

M. AMINJONOVA

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururatasи akademiyasi Qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni tashkil etish kafedrasi dotsenti, yuridik fanlar doktori

M. RAHIMOV

TDYU Mehnat huquqi kafedrasi dotsenti v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

O. NARZULLAYEV

TDYU Ekologiya huquqi kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori

B. MURODOV

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Tergov faoliyatni kafedrasi boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor

A. MUXAMEDJANOV

TDYU Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori

N. NIYAZOVA

TDYU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi



Nashriyotchi:

Mazkur jurnalning maxsus sonida keltirilgan ma'lumotlar, xulosalar, fikrlar va talqinlar mualliflarning fikrlaridir, ular hech qanday tarzda GIZ yoki BMZ nuqtayi nazarini aks ettirmaydi.

Bepul tarqatish uchun mo'ljallangan.

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
правовой научно-практический журнал

REVIEW OF LAW SCIENCES
legal scientific-practical journal

"Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences" huquqiy ilmiy-amaliy jurnalni O'zbekiston axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agent-

ligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrdagi 0931-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

© Toshkent davlat yuridik universiteti

MUNDARIJA

- 5 **КОПЕЦКИ КРИСТОФ**
Приветственное слово
- 6 **ЦИКО ЯН**
Приветственное слово
- 9 **САЙДУЛЛАЕВ ШАХЗОД АЛИХАНОВИЧ**
Приветственное слово
- 11 **СУЛТАНОВ РАВШАН АДИЛЕВИЧ**
Приветственное слово

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY
HUQUQ. MA’MURIY HUQUQ.
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 13 **АЛАНАЗАРЗОДА ШАРОФ**
Законодательство об административных
процедурах и судопроизводстве Республики
Таджикистан: опыт и перспективы реформирования
- 19 **ПУДЕЛЬКА ЙОРГ**
Комментарий к закону и его роль в судебной
практике: взгляд немецкого судьи
- 26 **ДОСМАМБЕТОВА ЧОЛПОН МОНОЛДОРОВНА**
Применение административными судами
Кыргызской Республики норм законодательства
об административных процедурах, связанных
с досудебным порядком обжалования
- 35 **ДУЙСЕНОВА ЖАНАР МУХАМЕДКАЛИЕВНА**
Судебная практика проверки соблюдения
административной процедуры
- 40 **YUSUPOV SARDORBEK BAHODIROVICH**
O’zbekistonda ma’muriy tartib-taomillarning asosiy
prinsiplarini qo’llashning ayrim jihatlari
- 50 **ТУЛЬТЕЕВ ИЛЬЯС ТАВАСОВИЧ**
Конституционные основы государственного
управления: некоторые аспекты законодательной
конкретизации
- 59 **NEMATOV JO’RABEK NEMATILLOYEVICH**
O’zbekiston Respublikasi “Ma’muriy tartib-taomillar
to’g’risida”gi Qonuni qabul qilinganiga 6 yil to’lishi
arafasida: asosiy yutuqlar va muammolar

72 **ЛИ АДИК**

Система органов государственного управления в сфере предпринимательской деятельности

80 **ХВАН ЛЕОНИД БОРИСОВИЧ**

Роль научных позиций в сфере публично-правового регулирования и их перспективы в Республике Узбекистан

86 **JURAYEV SHERZOD YULDASHEVICH**

Ma'muriy-huquqiy munosabatlarda mutanosiblik prinsipining o'ziga xos o'rni va uning huquqiy ahamiyati

95 **TURABOYEV IXTIYORJON QOBILOVICH**

Soliqlarni kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lashning o'ziga xos xususiyatlari

102 **SAMIG'JONOV FAZLIDDIN RAFKATOVICH**

Budjet jarayoni va uning bosqichlari

110 **AXROROV ADXAMJON ASRORKUL O'G'LII**

Ekologiya sohasidagi ma'muriy-huquqiy nizolarni sud tomonidan hal qilishning ayrim jihatlari

118 **G'OZIYEV KOZIMBEK JOVLONBEKOVICH**

Oliy ta'lim tashkilotlari ma'muriy huquqning subyekti sifatida

129 **RAJABOVA KARIMA QAHRAMONOVA**

Saylovga oid nizolarni hal etish usullari

135 **RAXMONOV OTABEK QO'CHQOR O'G'LII**

Korporativ huquq subyektlarini qayta tashkil etish shakllari va turlarini tasniflash va tizimlashtirish

143 **JURAEVA ASAL BAKHTIYEVNA,**

ABDIRAKHIMOV ISLOMJON ILKHOMJON UGLI

A brief analysis of uzbekistan bit practice: investor and state dispute resolution

156 **XUDOYBERGANOVA MAVJUDA HAMROQULOVNA**

Farmatsevtika faoliyatini litsenziyalashning huquqiy asoslari

164 **АВЕЗОВА ЭЛЕОНORA ПАРАХАТОВНА**

Институт социальной защиты государственных гражданских служащих: теоретические и методологические подходы

164 **СПИСОК ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫХ АКТОВ СТРАН ЕВРОПЕЙСКОГО СОЮЗА РЕГУЛИРУЮЩИХ ИНСТИТУТ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ПРОЦЕДУР**

DOI: <https://dx.doi.org/14.91788/tsul.rols.6464.8.sn./QCWM6939>
UDC: 346.9(449)(979.1)

EKOLOGIYA SOHASIDAGI MA'MURIY-HUQUQIY NIZOLARNI SUD TOMONIDAN HAL QILISHNING AYRIM JIHATLARI

Axrorov Adxamjon Asrorkul o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ma'muriy va moliya huquqi kafedrasи
katta o'qituvchisi
ORCID: 0000-0002-8193-167X
e-mail: adxam.axrorov@mail.ru

Annotatsiya. Ushbumaqolada ekologiya sohasida vujudga keladigan ma'muriy huquqiy nizolarni hal qilishning sud tartibi hamda ma'muriy (sudden tashqari) tartibi, ularning bir-biridan farqli jihatlari, "ma'muriy-huquqiy nizo" tushunchasi hamda ekologiya sohasidagi ma'muriy-huquqiy nizolarning o'ziga xos jihatlari hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq mazkur toifadagi nizolarning sudlova taalluqliligi masalasi amaliy misollar asosida yoritib berilgan. Bundan tashqari, sud amaliyoti hujjatlari tahlili asosida ma'muriy sudlar tomonidan ekologiya sohasidagi ma'muriy-huquqiy nizolarni ko'rib chiqishning o'ziga xos jihatlari yoritib berilgan. Ayrim nizolarnings sudga taalluqliligi yuzasidan normativ-huquqiy hujjatlardagi bahsli holatlar muallif tomonidan tadqiq qilingan va uniyechimiga qaratilgan mulohazarilar ilgarisurilgan. Shubilan birga, qonunchilik va sud hujjatlari tahlili natijasida milliy qonunchilik normalarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan hamda ushbu taklifa tavsiyalarda qonunchilik hujjatlari orqali asoslantirib berilgan.

Kalitso'zlar: ma'muriy nizo, ommaviy-huquqiy nizo, ma'muriy organ, ekologiya, atrof-muhit, ma'muriy tartib, sud tartibi, nizolarni hal qilish, mediatsiya, litsenziya, mineral resurslar, davlat ro'yhatidano'tkazish.

НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ СУДЕБНОГО РАЗРЕШЕНИЯ АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВЫХ СПРОВ В ОБЛАСТИ ЭКОЛОГИИ

Ахроров Адхамжон Асроркул угли,
старший преподаватель кафедры
«Административное и финансовое право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье на основе научно-теоретических исследовательских работ учёных-правоведов анализируются судебный и административный (внесудебный) порядок разрешения административных правовых споров, возникающих в области экологии, их отличия друг от друга, понятие «административно-правовой спор», специфика административно-правовых споров в области экологии. Также на практических примерах освещены особенности судебного разрешения административно-правовых споров в сфере экологии, а также вопрос судебной принадлежности данной категории споров в соответствии с законодательством Республики Узбекистан. Кроме того, на основе анализа документов судебной практики освещаются специфические аспекты рассмотрения административными судами административно-правовых споров в области экологии. Автором исследовалась спорные ситуации в нормативных правовых актах по поводу судебной принадлежности некоторых споров и выдвигались соображения,

направленные наихразрешение. Приэтомврезультатеанализа законодательства и судебных актов были разработаны предложения по совершенствованию национальных правовых норм, которые были основаны законодательными актами.

Ключевые слова: административный спор, публично-правовой спор, административный орган, экология, окружающая среда, административный порядок, судебный порядок, разрешение споров, медиация, лицензия, недра, государственная регистрация.

SOME ASPECTS OF JUDICIAL RESOLUTION OF ADMINISTRATIVE LEGAL DISPUTES IN THE FIELD OF ECOLOGY

Akhrorov Adkhamjon Asrorkul ugli,

Tashkent State University of Law
Senior Lecturer of the Department of
Administrative and Financial Law

Abstract. This article analyzes the judicial and administrative (extrajudicial) procedure for resolving administrative legal disputes arising in the field of ecology, their differences from each other, the concept of "administrative legal dispute," and the specifics of administrative legal disputes in the field of ecology on the basis of scientific and theoretical research works legal scholars. Also, practical examples highlight the features of judicial resolution of administrative legal disputes in the field of ecology, as well as the issue of judicial attribution of this category of disputes in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan. In addition, based on the analysis of judicial practice documents, specific aspects of the consideration by administrative courts of administrative legal disputes in the field of ecology are highlighted. Controversial situations in normative legal acts regarding the judicial jurisdiction of some disputes were studied by the author, and considerations were put forward aimed at resolving them. At the same time, as a result of the analysis of legislation and judicial acts, proposals were developed to improve national legal norms, which were justified by legislative acts.

Keywords: administrative dispute, public law dispute, administrative body, ecology, environment, administrative procedure, judicial procedure, dispute resolution, mediation, license, mineral resources, state registration.

Kirish

Sudga murojaat qilish huquqi O'zbekiston Respublikasida jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlari ni himoya qilishning asosiy konstitutsiyaviy kafolatlaridan biri hisoblanadi. Taraflardan biri doim ma'muriy organ, boshqasi jismoniy va yuridik shaxslar hisoblanadigan subyektlar o'rtasida vujudga kelgan ma'muriy-huquqiy nizolarni hal qilish, ma'muriy organ mansabdor shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari (harakatsizligi) va qarorlari yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rish hamda jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini himoya qilish davlat oldida

turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli ma'muriy-huquqiy nizolarni, xususan, ekologiya sohasidagi ma'muriy-huquqiy nizolarni hal qilish usullari, shuningdek, ushbu nizolarning sudlar tomonidan hal qilishning o'ziga xos jihatlari hamda ularning sudlovga taalluqliligi asoslarini tahlil qilish nazariy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Material va metodlar

Mazkur tadqiqot doirasida huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari asosida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi ma'muriy-huquqiy ma'muriy-huquqiy nizolarni sud tomonidan hal qilishning ba'zi jihatlari tahlil qilindi. Tadqiqotni

amalga oshirishda qiyosiy-huquqiy, mantiqiylik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va tahlili

Ma'muriy organlar bilan munosabatlarda jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilishda sudsarning ahamiyati yuqori hisoblanadi. Jismoniy va yuridik shaxslar ma'muriy organlar bilan ma'muriy-huquqiy munosabatga kirishganda, ushbu subyektlar o'rtasida ma'muriy organ mansabdor shaxsining qarori, harakati yoki harakatsizligi natijasida muayyan nizo vujudga keladi va bunday nizo ma'muriy-huquqiy nizo hisoblanadi. Ushbu nizolarni hal qilish, fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklash davlatning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi.

"Ma'muriy-huquqiy nizo" tushunchasi milliy qonunchiligidizda uchramasa-da, ommaviy-huquqiy nizo sifatida yuridik adabiyotlarda huquqshunos olimlar tomonidan tadqiq qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, Y.N. Starilov ma'muriy-huquqiy nizo ommaviy hokimiyatning funksiyalarishi sohasidagi ma'muriy-huquqiy munosabatlar subyektlari o'rtasida vujudga kelgan va ular ishtirokchilari noteng munosabatda joylashgan yuridik nizo ekanligini ta'kidlaydi (Starilov, 1998).

A.B. Zelensov esa ma'muriy-huquqiy nizo ma'muriy-huquqiy munosabatlar subyektlari o'rtasida turli xil tushunilgan o'zaro huquq va majburiyatlar va ma'muriy hujjatlarning qonuniyligi to'g'risida kelishmovchiliklar bo'lib, ular davlat boshqaruvi sohasida huquqiy normalarni amalga oshirish, qo'llash, buzhish yoki o'rnatish bilan bog'liq bo'lib, muayyan huquqiy protsedura doirasida hal qilinishini ta'kidlaydi (Zelentsov, 2005) .

X.Islamxodjayevning fikricha, ma'muriy-huquqiy nizo – bu ma'muriy-huquqiy munosabatlar subyektlari o'rtasida davlat boshqaruvi sohasida huquqiy normalarni amalga oshirish, qo'llash, buzhish yoki o'r-

natish bilan bog'liq bo'lgan va muayyan huquqiy protsedura doirasida hal qilinadigan ma'muriy aktlarning qonuniyligi to'g'risidagi kelishmovchiliklardir (Administrative Act, 2016).

Bizning fikrimizcha, turli olimlar tomonidan ma'muriy-huquqiy nizoga berilgan ta'riflarning mazmun-mohiyati bir xil hisoblanib, yuridik jihatdan teng bo'lмаган subyektlar (jismoniy, yuridik shaxslar va ma'muriy organ) o'rtasidagi ma'muriy-huquqiy faoliyat jarayonida vujudga keladigan ommaviy xarakterga ega bo'lgan nizoni anglatadi.

Shunga ko'ra, ekologiya sohasidagi ma'muriy-huquqiy nizolar esa tabiatdan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan jismoniy va yuridik shaxslar hamda ma'muriy organlar o'rtasidagi ommaviy-huquqiy nizolarni aks ettiradi.

Ba'zi yuridik adabiyotlarda ekologiya sohasidagi ma'muriy nizolarning quyidagi ikkita asosiy turi ajratib ko'rsatiladi:

- boshqaruv aktlarining qonuniyligi to'g'risidagi nizolar;
- tabiiy resurslardan foydalanuvchilarining subyektiv huquq va majburiyatlarini to'g'risidagi nizolar.

E. Lyutyagina esa ekologiya sohasidagi ma'muriy-huquqiy nizolarning quyidagi belgilarni ajratib ko'rsatadi (Lyutyagina, 2011):

- nizo tabiatdan foydalanish sohasidagi davlat organlari tomonidan boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'ladi;
- tabiatdan foydalanishni amalga oshiruvchi ma'muriy huquq subyektlarining huquqlari va majburiyatlarini to'g'risidagi nizo;
- nizo aniq bir ma'muriy huquqiy munosabatlarda tabiatni boshqarish subyektlarining salbiy reaksiyasi bilan tavsiflanadi (belgilangan qoidalarni qabul qilmaslik yoki rioya qilmaslik);
- moddiy jihatdan teng bo'lмаган taraflar o'rtasidagi nizo;
- protsessual jihatdan teng bo'lgan subyektlar o'rtasidagi nizo.

Shuningdek, E. Lyutyagina tomonidan ekologiya sohasidagi ma’muriy-huquqiy nizolar tarmoq ichidagi klassifikatsiyasining quyidagi 4 turi keltiriladi:

1. Yer qa’ridan foydalanish sohasidagi nizolar
2. Yerdan foydalanish bo'yicha nizolar
3. O'rmondan foydalanish sohasidagi nizolar
4. Suvdan foydalanish sohasidagi nizolar.

Bizning fikrimizcha, E. Lyutyagina tomonidan keltirilgan ekologiya sohasidagi ma’muriy huquqiy-nizolarning tarmoq ichidagi turlari mazkur sohadagi nizolarning barchasini qamrab olmaydi. Chunki o’simlik (daraxtlar) va hayvonot dunyosidan foydalanish to’g’risidagi nizolar ham ekologiya sohasidagi ma’muriy-huquqiy nizolarning bir turiga kiradi.

Milliy qonunchilik va yuridik adabiyotlar tahlili ma’muriy-huquqiy nizolarni hal qilishning ma’muriy (suddan tashqari) tartib va sud tartibiga ajratilishini ko’rsatadi (Artikov & Qosimov, 2018).

E. Lyutyagina esa turli mamlakatlar qonunchiligi tahlili asosida ma’muriy nizolarni hal qilish asosan quyidagi uch turdag'i qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinishini ta'kidlaydi: 1) “Ma’muriy tartib-taomillar to’g’risida”gi Qonun; 2) “Ma’muriy sudlar to’g’risida”gi Qonun yoki “Ma’muriy sud ishlarini yuritish to’g’risida”gi Qonun; 3) “Nizolarni hal qilishning muqobil vositalari to’g’risida”gi Qonun (Lyutyagina, 2011).

Ushbu o'rinda ta'kidlash kerakki, hozirgi vaqtida milliy qonunchiligidan omma-viy-huquqiy nizolarni hal qilishning ikki turi, ya’ni ma’muriy tartib va sud tartibi mavjud bo’lib, mamlakatimizda mazkur toifadagi nizolarni hal qilishning muqobil usullari joriy etilmagan. Xususan, “Ma’muriy tartib-taomillar to’g’risida”gi Qonunning 5-bobiga muvofiq, manfaatdor shaxslar shikoyat bilan yuqori turuvchi ma’muriy organ yoki sudga shikoyat qilishi mumkinligi belgilangan. Shuningdek, “Mediatsiya to’g’risida”gi Qonunning 3-mod-

dasiga muvofiq, ushbu Qonunning amal qilishi fuqarolik huquqiy munosabatlardan, ya’ni tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish munosabati bilan kelib chiqadigan nizolarga, yakka mehnat nizolariga va oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga mediatsiyani qo’llash bilan bog’liq munosabatlarga nisbatan, agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo’lsa, tatbiq etilishi belgilangan. Yuqoridagi normalar omma-viy-huquqiy nizolarga nisbatan nizolarni hal qilishning muqobil usullaridan biri hisoblangan mediatsiya tatbiq etilmasligini ko’rsatadi.

“Nizolarni hal qilishning ma’muriy tartibi” tushunchasi yuridik adabiyotlarda ma’muriy-huquqiy munosabat taraflari o’rtasida vujudga keladigan nizoni hal qilishning suddan tashqari usuli sifatida e’tirof etiladi (Bachilo et al., 1999; Nikiforov, 2004; Minashkin, 2007; Panova, 2007; Sarkisov & Lyubarsky, 2014; Tikhomirov, 2000).

Mazkur tartibning o’ziga xosligi shundaki, arizachi nizoli huquqiy munosabat vujudga kelganda, ustidan shikoyat qilinayotgan ma’muriy organdan yuqori turuvchi organga murojaat qiladi.

Ta’kidlash joizki, manfaatdor shaxslar vujudga kelgan ma’muriy nizolarni hal qilish usulini tanlashda erkin bo’lib, o’z xohishlariga ko’ra sudga yoki yuqori turuvchi ma’muriy organga shikoyat qilishlari mumkin.

Yangi tahrirdagi O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 55-moddasisi birinchi qismiga muvofiq, har kim o’z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli. Shuningdek, ushbu modda uchinchi qismiga binoan, har kim ga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan mudatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko’rib chiqilishi huquqi kafolatnishi mustahkamlangan.

Yuqorida ta’kidlanganidek, ma’muriy nizolarni hal qilishning samarali usullaridan biri bu sudga shikoyat qilish hisoblanadi. Ma’muriy nizolarni sud tartibida hal

qilish ma'muriy tartibdan farqli ravishda bir qator o'ziga xosligi bilan xarakterlanadi. Birinchidan, ushbu tartibda ma'muriy nizo nizolashuvchi taraflardan mustaqil faoliyat yurituvchi sudlar tomonidan hal qilinadi. Ikkinchidan, nizolarni hal qilishning sud tartibi oxirgi bosqich hisoblanib, nizo bo'yicha qabul qilingan sud hujjati barcha uchun majburiy hisoblanadi. Nizo ma'muriy tartibda ko'rilda esa taraf nizoni ma'muriy tartibda ko'rish natijalaridan norozi bo'lgan taqdirda sudga shikoyat qilishi mumkin.

Turli mamlakatlarda ekologiya sohasidagi ma'muriy nizolar umumyurisdiksiya sudlari, maxsus ma'muriy sudlar yoki ma'muriy nizolarni ko'rishga ixtisoslashtirilgan maxsus sudlar tomonidan ko'rildi.

O'zbekiston Respublikasida ekologiya sohasidagi ma'muriy nizolar ma'muriy sudlar tomonidan, ayrim toifadagi nizolar esa iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rib chiqildi. Xususan, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks 26-moddasi birinchi qismiga muvofiq, ma'muriy sudga fuqarolar va yuridik shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risidagi, ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar taalluqlidir, ammo bundan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga, fuqarolik ishlari bo'yicha sndlarga, iqtisodiy sndlarga va harbiy sndlarga taalluqli ishlar mustasno. Shuningdek, ushbu kodeks 27-moddasi birinchi qismi 2-bandiga ko'ra, mahalliy davlat hokimiyati organlarining, davlat boshqaruvi organlarining, ma'muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan boshqa organlarning, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining va ular mansabdar shaxslarning qonunchilikka mos kelmaydigan hamda fuqarolar yoki yuridik shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzdigan qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi hamda

5-bandagi davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish yoxud belgilangan muddatda davlat ro'yxatidan o'tkazishdan bo'yin tov lash ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi ishlar ma'muriy sud tomonidan ko'rishi belgilangan.

Ekologiya sohasidagi ma'muriy nizolar ushbu ikki toifadagi ishlar sirasiga kiradi. Ushbu fikrimizni misollar yordamida tahlil qilamiz. Muayyan yuridik shaxs mineral o'g'itlarni va o'simliklarni himoya qilish uchun foydalilaniladigan kimyoviy vositalarning ulgurji hamda chakana savdosi bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziya olish uchun O'simliklar karantini va himoyasi agentligiga murojaat qildi va tegishli hujjatlarni taqdim etdi. Agar agentlik tomonidan ariza rad etilsa va manfaatdor shaxs agentlik mansabdar shaxsining harakatlaridan norozi bo'lsa, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks 27-moddasi birinchi qismi 2-bandiga asosan, ma'muriy sudga murojaat qilishi mumkin.

Boshqa bir misol sifatida ko'radigan bo'l-sak, jismoniy yoki yuridik shaxs (arizachi) ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi hududiy filialiga murojaat qildi, lekin vakolatli organ belgilangan muddatda ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishdan bo'yin tovladi. Ushbu holatda arizachi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks 27-moddasi birinchi qismi 5-bandiga muvofiq ma'muriy sudga shikoyat qilish mumkin bo'ladi.

Sud amaliyoti hujjatlarining tahlili ekologiya sohasidagi nizolarda ma'muriy sudga shikoyat qilishda arizachilar tomonidan nizoning predmetiga kam e'tibor berilishini ko'rsatadi. Misol uchun, arizachi yuridik shaxs javobgar ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasiga nisbatan ma'muriy sudga murojaat qilib, boshqarmaning 2022-yil 22-iyuldagagi dalolatnomasining 4-bo'limi 4.1-bandи 7-kichik bandini no-

qonuniy deb topishni so'ragan. Ma'muriy sud tomonidan ariza ish yuritishga qabul qilish rad etilgan. Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks 185-moddasiga muvofiq, manfaatdor shaxs ma'muriy organning fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining qarorlarini haqiqiy emas, ular mansabdor shaxslarining harakatlarini (harakatsizligini) qonunga xilof deb topish to'g'risida ariza (shikoyat) bilan sudga murojaat qilishi mumkinligi belgilangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2019-yil 24-dekabrdagi "Ma'muriy organlar va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi 24-son qarori 5-bandiga muvofiq, ma'muriy organ qarori deganda ma'muriy organ yoki uning mansabdor shaxsi tomonidan yakka yoki kollegial tarzda qabul qilingan va muayyan huquqiy oqibat tug'diruvchi hujjat tushunilishi belgilangan. Shu sababli ma'muriy sud tomonidan nizoli dalolatnama arizachiga nisbatan huquqiy oqibat keltirib chiqarmasligi, dalolatnama asosida jamiyatga bajarilishi lozim bo'lgan majburiyat yuklanmasligini inobatga olib ushbu dalolatnomani ma'muriy organning qarori sifatida e'tirof etish mumkin emas, dejan xulosaga kelgan.

Mazkur holatdan kelib chiqib, ma'muriy sudga shikoyat qilishda ma'muriy organning muayyan huquqiy oqibat keltirib chiqaruvchi qarori (ma'muriy akti) yoki harakati (harakatsizligi) asos bo'lishi mumkinligini ta'kidlashimiz mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ekologiya sohasidagi ma'muriy nizolar nafaqat ma'muriy sudlar, balki iqtisodiy sudlar tomonidan ham ko'rilar ekan. Ya'ni milliy qonunchiligidizga muvofiq ayrim ma'muriy nizolar iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rib chiqilishi belgilangan. Xususan, Iqtisodiy protsessual kodeksining 217-moddasi birinchi qism 6-bandiga muvofiq, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bi-

lan shug'ullanish uchun litsenziyalarning (ruxsatnomalarning) amal qilishini o'n ish kunidan ko'p bo'lgan muddatga to'xtatib turish yoki ularning amal qilishini tugatish va litsenziyalarni (ruxsatnomalarni) bekor qilish to'g'risidagi ishlar iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rib chiqilishi belgilangan. Yuqorida keltirilgan misol asosida ushbu holatni ham tahlil qilamiz. Yuridik shaxs mineral o'g'itlarni va o'simliklarni himoya qilish uchun foydalilaniladigan kimyoviy vositalarning ulgurji hamda chakana savdosi bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziya asosida faoliyat yuritadi. O'simliklar karantini va himoyasi agentligi tomonidan litsenziya talablarini bajarilishi yuzasidan monitoring o'tkazilganda yuridik shaxs litsenziya talablarini doimiy tarzda qo'pol ravishda buzayotganligini aniqlasa, yuridik shaxsga berilgan litsenziyani bekor qilish to'g'risidagi talab bilan ma'muriy sudga emas, balki iqtisodiy sudga murojaat qilishi kerak. Chunki bunday toifadagi ishlar ma'muriy-huquqiy nizo bo'lismiga qaramasdan amaldagi qonunchilikka ko'ra iqtisodiy sudlar sudloviga taalluqli hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, mazkur toifadagi nizolarni ma'muriy sudlar sudloviga o'tkazish ham nizoli hisoblanadi. Birinchidan, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi 2-moddasiga muvofiq, ma'muriy sud ishlarini yuritishning asosiy vazifalari ma'muriy organlar bilan munosabatlarda qonun ustuvorligini, fuqarolar, shuningdek, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari ni ta'minlash hamda ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlar sohasida fuqarolar va yuridik shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarni himoya qilish ekanligi belgilangan. Lekin yuqorida keltirilgan nizoda vakolatli davlat organi tomonidan tadbirkorlik subyektlariga nisbatan huquqiy ta'sir choralarini qo'llash-

ni nazarda tutadi. Ikkinchidan, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks 40-moddasiga muvofiq arizachi va javobgar ma'muriy sud ishlarini yuritishdagi taraf-lardir. O'zlarining huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qiliш maqsadida talab taqdim etayotgan yoki manfaatlarini ko'zlab talab taqdim etilgan fuqarolar va yuridik shaxslar arizachilardir.

Ariza (shikoyat) talabi qaratilgan ma'muriy organlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ularning mansabdor shaxslari javobgardirlar.

Ushbu normadan ko'rinish turibdiki, ma'muriy sudsarda arizachi jismoniy va yuridik shaxslar, javobgar esa ma'muriy organlar va ularning mansabdor shaxslari hisoblanadi. Iqtisodiy protsessual kodeksning 215-moddasiga muvofiq, huquqiy ta'sir choralarini qo'llash to'g'risidagi arizalar bilan sudsarga nazorat qiluvchi organlar murojaat etishga haqli. Ya'ni mazkur toifadagi ishlarda arizachi ma'muriy organ, javobgar esa jismoniy yoki yuridik shaxslar hisoblanadi.

Ushbu asoslardan kelib chiqib, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ulanish uchun litsenziyalarning (ruxsatnomalarning) amal qilishini o'n ish kunidan ko'p bo'lgan muddatga to'xtatib turish yoki ularning amal qilishini tugatish va litsenziyalarning (ruxsatnomalarni) bekor qilish vakolatini mazkur sohada nazoratni amalga oshiruvchi organga berishni maqsadga muvofiq hisoblaymiz. Agar nazorat qiluvchi organ asossiz ravishda yoki qonun hujjatlariga zid holatda litsenziyaning amal qilishini o'n ish kunidan ko'p bo'lgan muddatga to'xtatib tur-

sa yoki uni bekor qilsa, manfaatdor shaxs umumiy asoslarga ko'ra ma'muriy organ mansabdor shaxsining qarorini haqiqiy emas, harakat (harakatsizlik)ini qonunga xilof deb topish to'g'risidagi talab bilan ma'muriy sudga shikoyat qilishi mumkin.

Shu sababli "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 42-moddasi birinchi qism 6-bandi hamda Iqtisodiy protsessual kodeksning 217-moddasi birinchi qismi 6-bandini chiqarib tashlashni maqsadga muvofiq hisoblaymiz.

Xulosha

Yuqorida keltirilgan ilmiy-nazariy va qonunchilik hujjatlari tahlili asosida quyidagi asosiy xulosalarni ilgari surishimiz mumkin:

- ekologiya sohasidagi ma'muriy-huquqiy nizo – bu tabiiy resurslardan foy-dalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida vakolatli ma'muriy organlar bilan jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi ma'muriy-huquqiy faoliyat sohasida vujudga keladigan nizo;

- ekologiya sohasidagi ma'muriy-huquqiy nizoning quyidagi belgilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) ekologiya sohasida vujudga keladi;
- 2) ma'muriy-huquqiy faoliyat sohasida vujudga keladi;
- 3) bir tomonda har doim ma'muriy organ, ikkinchi tomonda jismoniy yoki yuridik shaxs bo'ladi;
- ekologiya sohasidagi ma'muriy-huquqiy nizolarning barchasi ma'muriy sudsalar tomonidan ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiq.

REFERENCES

1. Administrative Act (2016). *Yearbook of Public Law 2016*. Moscow: Infotropic Media.
2. Artikov, D., & Qosimov, B. (2018). *Xorijiy mamlakatlarda ma'muriy yustitsiya* [Administrative justice in foreign countries] (In Uzbek). (P. 51). Tashkent: TSUL.
3. Bachilo, I. L., Gandilov, T. M., Grishkovets, A. A., & et al. (1999). *Dictionary of administrative law* (In Russian). (318 p.). Moscow: Fund "Legal Culture". ISBN 5877590332.

4. Luparev, E. B. (2003). *Administrative-legal disputes* (p. 32). [PhD thesis]. Voronezh.
5. Lyutyagina, Ye. (2011). *Administrative-legal regulation of nature use and environmental protection: a comparative legal study* [In Russian]. [Monograph]. (P.206). Moscow.
6. Minashkin, A. (2007). Pre-trial and out-of-court consideration of disputes with participation of public authorities. *Arbitration and Civil Procedure*, 10-11, 29–33, 24–28.
7. Nikiforov, M. V. (2004). *Administrative-legal disputes in courts of general jurisdiction* (p. 29) [Abstract of PhD thesis]. Moscow.
8. Panova, I. V. (2007). Administrative legal proceedings and the procedure of extrajudicial, pre-trial consideration of administrative cases. *Vestnik VAK RF*, 4, 4–27.
9. Sarkisov, O. R., & Lyubarsky, E. L. (2014). *Ecological Law* (5th ed. revised and suppl.). Kazan: Center for Innovative Technologies.
10. Starilov, I. N. (1998). *Administrative justice: problems of theory* [In Russian]. (P. 125). Voronezh.
11. Tikhomirov, Yu. A. (2000). *Collision law* (pp. 92–126). Moscow: JURINFORMCENTER. .
12. Zelentsov, A. B. (2005). *Administrative-legal dispute: questions of theory* [In Russian]. [Monograph]. (Pp. 170–175). Moscow: PFUR Publishing House.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2024-yil maxsus son

VOLUME 8 / SPECIAL ISSUE / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.SN.

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d., professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d., professor

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, M. Sharifova,

Y. Mahmudov, E. Mustafayev

Musahhih: K. Abduvaliyeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 16.02.2024-yilda tipografiyaga

topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 21,15 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 21.

TDYU tipografiyasida chop etildi.